





Olim eng ko'p foydalangan manbalar qatorida imom Jaloliddin suyutiyning "al-Itqon fi-ulum al-qur'on" nomli asaridan Tibyan asarining har bir faslini yoritishda keng foydalanadi. Shuningdek, tibyan asarida Imom Jaloliddin Suyutiyning hayoti va ilmiy faoliyati, u yozgan asarlariga oid muhim ma'lumotlar ham keltirib o'tiladi.

Imom, tarixchi Olim, mufassir, shofe'iy mazhabi faqih Jaloliddin Abdurrahmon ibn Abu Bakr ibn Muhammad Ibn Sobiqiddin al-Xuzayriy as-Suyutiy, shuningdek, Jaloliddin as-Suyutiy nomi bilan ham mashhur hisoblanadi. U Qohirada (849-hijriy/1445-yil milodiy, vafoti 911-hijriy /1505 yil) rajab oyining birinchi yakshanba oqshomida tug'ilganligi manbalarda zikr qilinadi<sup>4</sup>.

Imom Jaloliddin Suyutiyning dunyoga kelishliklari haqida manbalarda quyidagi voqea tilga olinadi. Ko'pchilikka ma'lumki Imom Suyutiyya "bnul kutub" deb nom berilgan buning sababi Suyutiyning onasi olimni kitoblar orasida dunyoga keltirganidir.

Jaloliddin Suyutiy yoshlik chog'idan Qur'on yodlashni boshlaydi. Allohning kalomini sakkiz yoshga to'lgunicha uni to'liq yodlashga muvaffaq bo'ladi. Shuningdek, yoshlik davrida bir qancha muhim kitoblarni ham yodlab oladi. Ularga "al-Umda" "Minhajul fiqh val usul" shuningdek imom Molikning "Alfiya ibn Molik" asarlarini misol qilib keltirish mumkin.


Jaloliddin as-Suyutiy hayoti davomida ko'plab asarlar yozib qoldirgan. Ibn Iyos o'zining "Misr tarixi" asarida as-Suyutiyning asarlari olti yuz asarni tashkil etganini ta'kidlaydi. Olim tafsir, fiqh, hadis, grammatika, tarix, tasavvuf, adabiyot va boshqalar kabi keng ko'lamli mavzularda ijod qilgan. Bu asarlari orasida eng mashhurlari quyidagilar: "al-Itqon fi ulum al-Qur'an" "Lubobul hadis" "Lubobun nuqul fi-asbab an-nuzul" "Asbab al-vurud al-hadis" "Tibb an-nufus" "Tabaqot al-mufassirin" "I'rob al-qur'an" "sharh as-Suyutiy ala sunan an-naso'iy" va boshqalar.

Uning o'limi Imom Suyutiy hijriy 911-yilning 19-jumadul-avval oyida, milodiy 1505-yil 20-oktabrda Qohiradagi Nil daryosi bo'yidagi Rovzat al-Miqyosdagi uyida vafot etadi. Ma'lumki, Jaloliddin Suyutiyning "Itqon" asari qur'onshunoslik sohasida eng mo'tabar manbalardan hisoblanadi. Bugungi kunga qadar ushbu asar bir necha bor nashr qilingan.

- Al-Itqon fi-ulul al-Qur'an asarining mashhur nashrlari quyidagilar.
- Hindiston, "Al-Mi'madoniyya" nashri 10 jildlik, (1271 hijriy).
- Qohira, "Usmon Abdul-Razzoq" nashri (1279 hijriy).

<sup>1</sup> – 1067 b.

<sup>4</sup> Muhammad Ali as-Sobuniy. At-Tibyan fi-ulum al-Qur'an. – Damashq: Maktabat-ul-asriyya, 2013. –S. 206.





- Qohira, “Maymaniyya” nashri (1278 hijriy).
- Qohira, “Al-Azhariyya” nashri (1317 hijriy).
- Mahmud Tavfiq kutubxonasining Qohiradagi nashri (1360 hijriy).
- Qohira, Katta tijorat kutubxonasi nashri, (1368 hijriy).
- Mustafo Al-Bobi Al-Halabiyning nashri, (1370 hijriy).
- Qohiradagi Al-Mashhad al-Husayniy kutubxonasining nashri, (1387 hijriy).
- Damashqdagi “Dor Ibn Kasir” nashri, (1407 hijriy).
- Favoz Zumrali tomonidan tahqiq qilingan, “Dar al-Kitab al-Arabi” nashri, (1419 hijriy).
- Olim Muhammad Ali Sobuniy o‘zining “Tibyan” asarini yozishda Suyutiyning “Itqon” asaridan keng foydalanadi. Jumladan, sababi nuzulni bilishlikning ahamiyati haqida ulomolarning fikrlari:

Imom Vohidiy aytadiki: Oyatning tafsirini unga aloqador qissa va sababi nuzulni bilmasdan turib anglashlik mumkin emas<sup>5</sup>.

Ibn daqiq al-Iyd aytadi: Sababi nuzulni bilish Qur’onning manosini tushunishlikda juda kuchli yo‘ldir<sup>6</sup>.

Shu bilan birga mashhur qiroatlar va ularning turlari, mufassirlarga qo‘yilgan shartlar va boshqa ko‘plab o‘rinlarda imom Jaloliddin Suyutiyning Qur’onshunoslikka oid “Itqon” asaridan “Tibyan” asaridagi mavzularni yoritishda keng foydalanadi.

Muhammad Ali Sobuniy o‘zining tibyan asarini ta’lif etishda Zarqoniyning “Manahil al-irfon” nomli asaridan ham keng foydalanadi. Zarqoniyning to‘liq ismi Muhammad Abdulazim az-Zarqoni bo‘lib, (Qohirada 1948-yil vafot etadi) misrning g‘arbiy muhofazasida dunyoga keladi. Olim Qohiradagi “al-Azhar” universitetining kuchli ulomolaridan biri hisoblanadi. Zarqoni Azharning usul ad-din kulliyasini bitiradi. Shu yerning o‘zida Qur’on karim, hamda hadis ilmlaridan dars bera boshlaydi. Olimning eng mashhur asarlaridan “Bahs fid da’vat val irshod” “Manahil al-irfon fi ulum al-Qur’on” nomli asarlari eng mo‘tabar asarlaridan hisoblanadi<sup>7</sup>. Zarqoniyning “Manahil al-irfon” asari ilk bor 1995-yil Bayrutdagi “Dorul kutub al-al-g‘azoliy” nashriyotida ikki jildda nashr qilinadi<sup>8</sup>.


Olim Muhammad Ali Sobuniy tibyan asarini mavzularini yoritishda imom Zarqoniyning “Manahil al-irfon fi ulum al-Qur’on nomli asaridan ham ko‘plab o‘rinlarda foydalanadi. Jumladan, asarining ikkinchi faslida Qur’on Karimning

<sup>5</sup> Jaloliddin Suyuti. Al-Itqon fi-ulum al-Qur’an. – Damashq: Muassasat-ur-risala an-nashirun, 2008. –S. 87.

<sup>6</sup> O’sha asar. –B. 87.

<sup>7</sup> <https://ar.m.wikipedia.org/wiki/%> (21.10.22.)

<sup>8</sup> Muhammad Abdulazim Zarqoni. Manahil-ul-irfon fi-ulum-al-Qur’an. – Bayrut: Dorul kutub al-G‘azoliy, 1995. – J. 1. –S. 1-4.





mufarriq holatda nozil bo'lishligining hikmatini yoritishda Zarqoniyning asaridan ham keng foydalanadi. Shuningdek, ushbu mavzu davomida Qur'on Karim nozil bo'lishligi borasidagi ba'zi bir insonlarning fikrlariga Zarqoniyning ushbu asaridan raddiya ham berib o'tiladi. Ushbu mavzuni quyida tahlil qilinadi.


Imom Zarqoniy o'z asarida shunday deydi: Odamlarning ba'zilar Nabiyy a.s ga Jabroil a.s Qur'on karimning ma'nolarini olib kelgan so'ngra Rasululloh s.a.v uni arab tilida izohlaganlar deb to'qib chiqarganlar, boshqalari bo'lsa Qur'on Karimning lafzi Jabroil a.s ga tegishli Alloh taolo faqat uning ma'nosini vahiy qilgan deb o'ylaydilar. Ushbu fikrlarning har ikkisi ham botil gunohkor gaplardir, va ochiq oydin kitob, sunnat va ijmoqa qarshidir. Mazkur aytilgan fikrlar ushbu fikrlar yozilgan siyoh qiymatichalik qiymatga ega emas. Mening nazarimda ushbu fikrlar musulmonlarga qarshi tashqaridan ularning kitoblariga sizdirib kiritilgan bo'lsa kerak, aks holda Qur'on karimning nazmi, lafzi Rosululloh s.a.v.ga yoki Jabroil a.s ga tegishli bo'ladigan bo'lsa, qanday mo'jizakor ojiz qoldiruvchi bo'la oladi.

Agar mushriklardan birortasi Sizdan himoya so'rasa, bas, uni himoyangizga oling, toki u Allohning kalomini eshitsin. So'ngra uni xavfsiz joyiga yetkazib qo'ying! Bu ularning bilmaydigan qavm bo'lganlaridandir. (Tavba surasi, 6-oyat)

Olim o'zining asarini yuqori ilmiy darajada yoritishni maqsad qiladi. Shu sababdan ham asarini ulum al-Qur'onga oid asarlarning eng mashhurlaridan foydalangan holda yoritadi. Mazkur asarlardan tashqari shayx Sobuniy boshqa sohaga oid bo'lgan asarlarning bir qanchasidan foydalanadi. Jumladan, Zirkliyning siyratga oid mashhur asar hisoblangan, "al-A'lam" asaridan ham keng foydalanadi. Mazkur asar muallifining to'liq ismi Xoyruddin ibn Mahmud ibn Muhammad ibn Ali ibn Foris az-Zirkaliy ad-Dimashqiy bo'lib, (1898-1976) yillarda yashab kotib, muarrix va shoir kabi bir nechta sohalarda ijod qilgan. Uning otasi damashqda mashhur tadbirkorlardan biri edi. Olim umri ko'plab sherlar va tarixga oid asarlar yozadi. Xoyriddin Zirkliyning eng mashhur asari "al-A'lam" bo'lib uning to'liq nomi quyidagicha:

(الاعلام قاموس تراجم لاشهر الرجال والنساء من العرب والمستعربين والمستشرقين)

"al-A'lam qomus tarojim liashhur ar-rijal va an-nisa minal arab val musta'ribiyn va al-mustashriqiyn" tarjimasi, sharqshunos va arabshunos mashhur ayollar va erkaklarning tarjima holi qomusiy lug'ati" mazkur olimlarning Avtobiografiyalariga oid asar bir necha bor nashr qilingan. Ulardan eng mashhurlari quyidagilar:





Birinchi marta: Misrdagi “matbaatul arobiyya” nashriyotida, hijriy 1345-yilda uch jild 1187-sahifada nashr qilinadi.

Ikkinchi marta: birinchi nashrda deyarli o‘ttiz yil o‘tib hijriy 1377-yilda o‘nta jildda nashr qilinadi. Mazkur nashrda avvalgi nashrdagi xató kamchiliklar bartaraf etiladi. Shuningdek, avvalgi nashrda qayd etilmagan ba’zi o‘zgarishlar jumladan, olimlarning rasmi partretlari ham qo‘shib nashr qilinadi.

Uchinchi marta: hijriy 1389-yilda o‘n bir jildda nashr qilinadi. Ushbu nashrga ham ba’zi o‘zgartirish va qo‘shimchalar qo‘shiladi.

To‘rtinchi marta: hijriy 1399-yilda muallifning vafotidan keyin nashr qilinadi.

Beshinchi marta: 2002-yil Bayrutdagi “Dorul ilm” nashriyotida yetti jildda nashr etiladi. ushbu nashr eng so‘ngi va eng to‘liq nashr hisoblanadi<sup>9</sup>. Mazkur asarda alifbo tartibida jamlanadi. Olim shayx Sobuniy ushbu asardan Tibyan asarining yettinchi bobida tobeinlardan bo‘lgan mashhur mufassirlarning hayotlarini yoritshda keng foydalanadi. Ularga misol qilib quyidagi tobeinlarni keltirishimiz mumkin:

Ato ibn Abu Raboh, hijriy 28-yilda tug‘iladi. Makkada shahrida ulg‘ayadi. Makka ahlining muftiysi bo‘lgan rivoyatlarda ishonchlilik darajasi bilan tobeinlarning yetuk faqihlaridan biri edi.

Imom Azam Abu Hanifa an-No‘mon Ato ibn Abi Raboh haqida shunday deydi: Ato ibn Abu Rabohdan ko‘ra fazilatliroq kishini uchratmadim.

Ato ibn Abu Raboh Makkada sakson yetti yoshida vafot etadi. shu joyga dafn etiladi<sup>10</sup>. Shuningdek, makka ahlidan madina ahlidan bo‘lgan ko‘plab tobeinlarning jumladan, Mujohid ibn Jabbar (21-104-hijriy) Ikrima ibn Abdulloh al-barbariy al-madaniy Mavla Abdulloh ibn Abbos at-tabeiy, Tovus ibn Kiyson al-yamoni, Said ibn Jubayr kabi bir nechta tobeinlar hayotlari haqida qimmatli ma‘lumotarni Olim Muhammad Ali Sobuniy Zirkliyning “al-A‘lam” asaridan foydalangan holda yoritadi.

Keyingi o‘rinlarda olim Muhammad Sobuniy qur‘onshunoslikka oid asarlar bilan bir qatorda bir nechta mo‘tabar hisoblangan tafsir asarlardan ham o‘z asarini yoritishda foydalanadi. Jumladan, imom Qurtubiyning “Tafsir qurtubiy” nomi bilan shuhrat topgan asardan ko‘plab o‘rinlarda foydalanadi. Imom Qurtubiyning to‘liq ismi Muhammad ibn Ahmad ibn Abi Bakr ibn Farh al-Qurtubiy bo‘lib milodiy 1214-yilda Andalus hozrgi Ispaniyada tug‘iladi<sup>11</sup>. Imom Qurtubiy mufassirlarning kiborlaridan biridir. Shu bilan birga kuchli faqih, yetuk

<sup>9</sup><https://ar.m.wikipedia.org/wiki/> (16.02.2022.)

<sup>10</sup> Muhammad Ali as-Sobuniy. “at-tibyan fi-ulum al-qur’an”. Maktabatul asriyya” g‘azzoliy . Dimashq 2013.-150 b.  
<sup>11</sup> Imom Qurtubiy. Al-Jamiu li-ahkam-il-Qur’an. Bayrut: Muassasatur risala, 2006. birinchi juz’ 4 b.





muhaddis hamda ibodatgo'y zohidlardan hisoblanadi. Imomning mazhabi molikiy shuningdek ash'ariy aqidasi bo'lgan. Tarixchi olimlarning takidlashlaricha imom Qurtubiy o'zining hayot faoliyati davomida o'nga yaqin asar yozgan<sup>12</sup>. Ulardan eng mashhuri "al-Jam'i lihakam al-Qur'on" shuningdek "tafsir qurtubiy" deya ham shuhrat topgan asari hisoblanadi. Olim Muhammad Sobuniy mazkur asardan ko'plab o'rinlarda, jumladan, mufasssirlar bilishligi lozim bo'lgan ilmlar qismida keng foydalanadi. Masalan, Imom Qurtubiy o'zining mashhur bo'lgan tafsir kitobida Qur'on Karimda xato yo'qligi borasidagi mazkur qissani keltirib aytadiki:

Umar ibn Xattob r.a davrda bir a'robiy Madina Munavvaraga keladi.

So'ngra aytadiki, Muhammad s.a.v ga nozil qilingan narsani (Allohning kalomini) menga kim o'qib beradi dedi.

Shunda bir kishi men o'qib beraman dedi va tavba surasing ushbu oyatini (Oxiridagi rasulih tarzida) zammaning o'rniga jar, kasra tarzida o'qib beradi.


Shuningdek, (bu) Alloh va (Uning) Payg'ambaridan "Hajji akbar" (Qurbon hayiti) kuni odamlarga Allohning va Rasulining mushriklardan bezor ekanliklarini e'loni (ham)dir. Agar tavba qilsangiz, bu sizlar uchun yaxshidir. Bordiyu (tavbadan) bosh tortsangiz, u holda bilib qo'yingizki, sizlar Allohni ojiz qoldiruvchi emassiz. (Ey, Muhammad!) Kofir bo'lganlarga alamli azob haqida "xushxabar" bering! (Tavba surasi, 3-oyat)

Shunda A'robiy Alloh taolo o'zining Rasulidan bezormi! Agar shunday bo'ladigan bo'lsa men ham Allohning Rasulidan Bezorman dedi.

Insonlar bu ishni juda muhim deb hisobladilar hamda a'robiy aytganlarini Umar r.a ga yetkazishdi. So'ngra Umar r.a. uni chaqirdi va ey a'robiy sen Allohning Rasulidan Bezormisan dedi.

Shunda A'robiy ey mo'minlarning amiri men madinaga keldim menda esa Qur'on karim borasida ilm yo'q edi. So'ngra menga Kim o'qib beradi deya so'radim. Shu vaqtda ushbu kishi tavba surasini o'qib berdi. Keyin esa men agar Alloh o'zining Rasulidan bezormi? Dedim. Agar Alloh taolo o'zining Rasulidan bezor bo'lsa u holda men ham undan bezorman dedim.

- Shunda Umar r.a aytdiki: ey A'robiy ushbu oyat bunday o'qilmaydi?
- A'robiy unday bo'lsa qanday ey mo'minlarning amiri!
- Umar ibn Xattob r.a yuqoridagi oyatni aslini zamma qilib o'qidi.
- So'ngra A'robiy Allohga qasamki, men Alloh va uning Rasuli bezor bo'lgan





kimsalardan men ham bezorman, men ham mushriklardan bezorman dedi. Mazkur ish Sodir bolgandan so'ng Umar ibn Xattob r.a. insonlarga Arab tilini biladigan kishigina Qur'on Karim o'rgatishlikka buyuradi<sup>13</sup>.

Keyin esa Abul Asvad Dualiyga Amr etadi u esa nahv ilmi qoidalarini ishlab chiqdi. Olim Sobuniy bundan boshqa bir qancha o'rinlarda ham o'zing asarini ilmiy saviyada yozishlik maqsadida mazkur asardan keng ko'lamda foydalanadi.

Shayx Muhammad Ali Sobuniy tafsir asarlardan o'z asarini yoritishda keng foydalanadi. Jumladan, ibn Kasirning "Tafsir qur'anul azim" nomli asaridan o'z asarining bir nechta o'rinlarida mavzularni yoritishda foydalanadi. Ibn Kasirning to'liq ismi Abul-Fido Ismoil ibn Umar ibn Kasir bo'lib, Imoduddin (dinning ustuni) deb sharaflangan. Olim 1301-yilda Suriyaning Damashq sharqidagi Busro shahrining Mijdal qishlog'ida tavallud topgan.


O'sha davrdagi Suriyaning yetuk olimlaridan bo'lmish Al-Mizziyning qiziga uylanadi va shu bilan olimlar jamiyatiga qo'shiladi. 1345-yilda qaynotasining vatani hisoblangan Mizzada qurilgan yangi masjidida xatib bo'lib tayinlanadi<sup>14</sup>.

Ibn kasir 1373-yil fevral oyida damashqda vafot etadi. Olim umri davomida ko'plab asarlar yozib qoldiradi. Masalan, "al-Bidoya val nihoya" "Jarh va ta'dil" ularning eng mashhurlaridan hisoblanadi. Eng mo'tabar shoh asari hisoblangan "Tafsir qur'on al-azim" asari hisoblanib, olim shayx Sobuniy o'zini tibyan asarining bir nechta o'rinlarida turli mavzularni yoritish uchun ibn Kasirning tafsiriga murojaat qiladi. Jumladan, asarning to'qqizinchi bobi ya'ni qur'on karim ilmiy mo'jizalari bayonida ham mazkur asardan foydalanadi. Alloh taolo o'zining kalomida shunday deb marhamat qiladi:

Kofir bo'lganlar osmonlar ham, Yer ham (avvalda) yaxlit bo'lganini, bas, Biz ularni yorib yuborganimizni va barcha tirik mavjudotni suvdan (paydo) qilganimizni ko'rmadilarmi?! Endi ham imon keltirmaydilarmi?! (Anbiyo surasi, 30-oyat)

"Va har bir jonzotni suvdan yaratdik" ushbu oyatning ikkinchi qismiga kelsak, olimlar uning sirini anglab yetgan ilmiy haqiqat shuuki, yerdagi barcha tirik jon o'simliklar yashashda davom etishligi uchu suv zaruriy elementdir. Ibn Abbas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: U zot ushbu muborak oyatning tafsirida shunday dedilar: Osmon yomg'ir yog'maydigan yaxlit bir butun edi, yer esa o'simlik o'smaydigan bir yaxlit edi. Kachonki, Alloh taolo yer uchun odamzotni yaratganida, osmonni yomg'ir yog'adigan, yer esa o'simliklar

<sup>13</sup> Muhammad Ali as-Sobuniy. At-Tibyan fi-ulum al-Qur'an. – Damashq: Maktabat-ul-asriyya, 2013. –S. 169-170.  
[https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ibn\\_Kasir](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ibn_Kasir) (02.09.2022.)






o'sadigan qildi<sup>15</sup>. Bundan tashqari ham olim mazkur mo'tabar tafsir asaridan bir nechta o'rinlarda foydalanadi.

**Foydalanilgan manba va abiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markaziga xorijiy tadqiqotchi olimlar jalb etilishi munosabati bilan kutubxona fondini xorijiy adabiyotlar bilan boyitish to'g'risida"gi 2019-yil 26-iyun, 519-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4385617>
2. Tarjimon: Otabek G'aybulloh. Qirq hadis. (sharh va izohlar) – T.: sharq, 2019. – 200 b.
3. Xoluq Nurboqiy. Qur'on karim ilmiy m'jizalari. (Tar: Miraziz Azam) –T.: g'afur g'ulom nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 144 b.
4. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Bakr Qurtubiy. Al-Ja'mi' liahkam al-Qur'an. – Bayrut: muassasa ar-risala, 2006. – 493 b.
5. Muhammad AbdulAzim Zarqoniy. Manahil al-irfon fi-ulum al-Qur'an. – Bayrut: Dor al-kutub al-g'azoliy, 1995. – 805 b.
6. Muhammad Ali Sobuniy. Muxtasar tafsir ibn Kasir. – Bayrut: Dor al-Qur'an al-Karim, 1981. 1-jild. 645 b.
7. Muhammad Ali Sobuniy. Min kunuz as-sunna dirosa adabiyya va lug'aviyya min al-hadis ash-sharif. –Bayrut: Dor al-qalam, 1989. – 208 b.
8. Shamsiddin ibn Jazariy. Tabaqot al-Qurro. – Bayrut: Dor al-Kutub ilmiyya, 2006. 1-juz – 551 b.
9. Imom Buxoriy. Sahih buxoriy. – Bayrut: Muassasa ar-risala an-nashiruvn, 2022. – 1904 b.
10. Ibrahim Demir. Muhammed Ali es-Sâbûnî ve tefsir metodu. Yüksek Lisans Tezi (Ank.Ün.ilahiyat Fak. 1996 mezunu) – Ankara, 2000. 110 b.
11. Muhammad Ali Sobuniy. Sharh al-muyassar li-sahih buxoriy. – Bayrut: maktaba al-asriyya, 2011. 1-jild 702 b.
12. Jaloliddin suyutiy. Al-Itqon fi-ulum al-quran. – Damashq: Muassasa ar-risala an-nashirun, 2008. – 832 b.
13. Prof. Dr. Muhsin demirci. "Kuran tarihi, – Istanbul: Ekim, 2015. – 268 b.
14. Muhammad Ali Sobuniy. at-Tibyan fi-ulum al-qur'an. –Damashq: Maktabat al- asriyya, 2013. – 328 b.
15. Shayx Muhammad Ali Sobuniy. At-Tibyan fi-ulum al-Qur'an. – Istanbul: Al-Fotih, 2021. – 327 b.

---

<sup>15</sup> Muhammad Ali as-Sobuniy. At-Tibyan fi-ulum al-Qur'an. – Damashq: Maktabat-ul-asriyya, 2013. –S. 271.





16. Xoyriddin Zirkliy. Al-A'lam qomus tarojim li-ashhur ar-rijal va an-nisa min al-arab va al-musta'ribiyn va al-mustashriqiyn. – Bayrut: Dorul ilm, 2002.
17. – 1187 b.
18. Qohiradagi Arab tili akademiyasi. Al-Mo'jam Al-Vasit. – Qohira: Maktaba ash-shuruq ad-duvaliya, 2011. – 1067 b.
19. Ahmed Deedat. Al-Qur'an the miracle of miracles. – 1991. P 54.
20. Muhsin Demirci. Kur'ân Tarihi. – Istanbul: Ekim, 2015. –357 s.
21. Adem Şenel. Kur'an Hiç Tükenmeyen Mucize. – İstanbul: Sirkeci, 2019. 559 s.

